

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni..... 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari..... 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi..... 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari..... 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar..... 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati..... 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARI TURG'UN BIRIKMALARIDA GENDERNING
IFODALANISHI****ВЫРАЖЕНИЕ ПОЛА В УСТОЙЧИВЫХ СОЧЕТАНИЯХ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО
ЯЗЫКОВ****EXPRESSION OF GENDER IN GERMAN AND UZBEK PHRASEOLOGY****Yusupova Gulxumor¹****¹Yusupova Gulxumor**– Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va
amaliyot kafedrasasi o'qituvchisi,**Annotatsiya**

Frazeologizmlar til leksikasida salmoqli o'rinni egallaydi. Frazeologik tizimning milliy-madaniy muammolari ko'plab tadqiqotlarning obyektiga aylanib kelmoqda. Maqolada turg'un birikmalarning gender xususiyati tahlilga tortilgan. Genderning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilishi mumkin. Mazkur maqolada turg'un birikmalarda gender masalasi muhokama qilingan. Maqolada nemis va o'zbek tillaridagi turg'un birikmalar tanlab olingan va ulardagi gender xususiyatlar keng muhokama qilingan. Frazeologik birliklar va premiyalarni qiyoslashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi, chunki frazeologiya turli xalqlarning milliy obrazlarini, madaniy konseptlarini o'zida aks ettiradi. Maqolada ayol va erkak konseptlari nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalari misolida yoritib berilgan. Gender frazeologizmlar tahlil qilinganda atoqli ot qatnashgan, ammo mazmunida gender xususiyati mavjud bo'lmagan frazeologizmlar o'zbek tiliga qaraganda nemis tilida ko'p ekanligi aniqlandi. Hayvon komponentli frazeologik birliklar nemis tilida ham, o'zbek tilida ham talaygina. Lekin jinsni ifodalashda qo'llanuvchi zooleksema gender iboralar soni har ikki tilda ham kam. Nemis va o'zbek tillarining turg'un birikmalari tahlil qilinganida genderlik xususiyatlari ko'proq maqollarda aks etishi aniqlandi. Maqolada taqqoslash, tasvirlash kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi

Аннотация

Фраzeологизмы занимают важное место в лексиконе языка. Национально-культурные проблемы фразеологизма стали объектом многих исследований. В статье проанализирована гендерная характеристика устойчивых соединений. Одной из важных особенностей гендера является то, что он имеет междисциплинарный характер и может быть изучен в любой области науки. В данной статье рассматривается вопрос пола в фиксированных комбинациях. В статье выделены устойчивые сочетания немецкого и узбекского языков и широко обсуждаются гендерные особенности в них. При сопоставлении фразеологизмов и словосочетаний ярко выражены языковые и культурологические различия между языками, поскольку фразеология отражает национальные образы и культурные представления разных народов. В статье на примере устойчивых сочетаний немецкого и узбекского языков раскрываются концепты женщина и мужчина. При анализе гендерной фразеологии было установлено, что в немецком языке фразеологизмов больше, чем в узбекском языке. Фразеологизмов с животным компонентом много как в немецком, так и в узбекском языках. Однако количество родовых выражений с зоолексемой, используемых для выражения пола, невелико в обоих языках. При анализе устойчивых сочетаний немецкого и узбекского языков было установлено, что гендерные особенности отражены в большем количестве пословиц. В статье использованы такие методы научного исследования, как сравнение и описание.

Abstract

Phraseologisms play an important place in the lexicology of the language. The national cultural problems of the phraseological system have become the basis of many studies. In this article, gender characteristic of stable compounds is analyzed. One of the important features of gender is that it has an interdisciplinary nature and can be studied in every field of science. This article discusses the issue of gender in fixed combinations. In the article, fixed combinations of German and Uzbek languages are selected and the gender features in them are widely discussed. When comparing phraseological units and premiums, the linguistic and cultural differences between languages are clearly expressed, because phraseology reflects the national images and cultural concepts of different people. Furthermore, the concepts of woman and man are explained on the example of fixed combinations of German and Uzbek languages. When analyzing gender phraseology, it was found that there are more phraseology in the German language than in the Uzbek language. There are a lot of phraseological units with an animal component both in German and in Uzbek. However, the number of gender expressions with zoolexema used to express gender is small in both languages. When the stable combinations of German and Uzbek languages were analyzed, it was found that gender characteristics are reflected in more proverbs. Scientific research methods such as comparison and description were used in the article

Kalit so'zlar: gender, gender lingvistika, gender ibora, zooleksema, gender stereotipi, ayol stereotipi, erkak stereotipi, atoqli ot.

Ключевые слова: гендер, гендерная лингвистика, гендерная фраза, зоолексема, гендерный стереотип, женский стереотип, мужской стереотип, существительное.

Key words: gender, gender linguistics, gender phrase, zoolexema, gender stereotype, female stereotype, male stereotype, noun.

KIRISH

Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri turg'un birikmalardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Bugungi kunda turg'un birikmalarni har tomonlama tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Jumladan, frazeologik birliklarning gender tahlili o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir. Iboralarda gender stereotiplari bevosita yoki bilvosita aks etishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda televideniya, matbuot va internet tarmoqlarida gender bilan bog'liq turli mavzular muhokama qilinmoqda. Gender lingvistik genderologiya fanining tadqiqot obyektidir. Gender lingvistika tilshunoslikning yangi sohasi bo'lishiga qaramasdan ko'plab tilshunos olimlar mazkur soha bilan shug'ullanishmoqda. Lekin gender bilan bog'liq frazeologizmlar ustida juda kam tilshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar qilishgan. Nazariy jihatdan gender frazeologizmlarni tadqiq qilgan olimlar sifatida nemis olimlari Elisabeth Piirainen va Yohan Shternkopflarni sanab o'tish mumkin.

Nemis olimi Yohan Shternkopf 1995-yilda nemis tilida mavjud bo'lgan jinslarni ifodalovchi frazeologizmlarni atoqli otlar, qarindoshlik darajasiga ko'ra "Mann", "Frau" so'zlari qatnashganlarini tadqiq qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis tili frazeologiyasida jinslarni ifodalovchi frazeologizmlar ko'p emas [6, 417 b].

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerak, o'zbek tilshunosligida turg'un birikmalarning gender xususiyatlari va uni boshqa tillar bilan qiyoslangan holda o'rganish hali tadqiq qilinmagan. Shuning uchun ham bu mavzu o'zbek tilshunosligida dolzarb va ahamiyatli mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gender tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir. Shuningdek, biz turg'un birikmalarda uchraydigan gender stereotiplarni ikki turga ajratib ko'rib chiqamiz:



Gender frazeologizmlarni tarkibidagi komponentlariga qarab 2 turga ajratdik.

1. Tarkibida gender leksemalar mavjud bo'lgan turg'un birikmalar. Bunday turg'un birikmalar tarkibida ayollar yoki erkaklar ismi, qon-qarindoshlik leksemalari qatnashgan bo'lishi mumkin, lekin ma'nosida ayol yoki erkak tasvirlanmaydi. Bunday frazeologizmlarni 2 guruhga: *atoqli otlar qatnashgan iboralar va qon-qarindoshlik leksemalari qo'llangan iboralar* kabi guruhlarga ajratdik.

a) Atoqli otlar qatnashgan gender iboralar:

1. **Bei Adam und Eva anfangen** – (bei seinen Ausfuehrungen sehr weit ausholen) – gapni uzoqdan boshlamoq, uzoqdan kelmoq.

Wenn mein Vater etwas erzhlt. Fngt er immer bei **Adam** und **Eva** an [1, 27].

2. Von Adam und Eva stammen – (schon lange bekannt, uralt sein) – ancha vaqtdan beri malum, eskirgan. **Dieser Witz stammt von Adam und Eva.**

3. **Hinz und Kunz** (jederman) – har kim. Bu iborada Heinrich va Konrad ismlari qisqargan shaklda keltirilgan.

4. **dem Peter nehmen und dem Paul geben** (ein Loch stopfen und ein anderes aufreißen) – von dem etwas leihen, um den andern damit zu bezahlen – birovdan qarz olib boshqasiga to'lash

5. **Freund Hein (Tod)** – o'lim

6. **Frau Holle macht/schüttelt die Betten (es schneit)** – qor yog'moq

7. **Seinen Friedrich Wilhelm unter etwas setzen** (ugs. etwas unterschreiben) – imzo chekmoq

8. **Mit Glanz und Gloria** – ajoyib, muvaffaqiyatli. Sie hat die Prüfung mit Glanz und Gloria bestanden.

Yuqorida keltirilgan misollarda **Adam, Eva, Heinrich, Konrad, Peter, Friederich, Wilhelm, Hein, Frau Holle** kabi erkak va ayolni ifodalovchi antroponimlar qo'llangan bo'lishiga qaramasdan, ibora mazmuni boshqa ma'noni anglatadi.

O'zbek tilida bu guruhga kiruvchi kam sonli iboralar topildi.

1. **Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi.** Bu ibora Sulaymon ismi bilan bog'liq bo'lib, u Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri, hukmdor. Jinlarning Sulaymonga qasrlar bunyod etgani, dengiz tubidan duru javohirlar olib chiqib bergani naql etiladi. Sulaymon tayangan hassani uzoq vaqt yog'och qurti yeb u yerga qulab tushmaguncha, jinlar Sulaymonning vafot etganini bilmaganlar va payg'ambar ularga buyurgan vazifa - baland qasr bino qilish ishini davom ettiraverganlar. Shunday qilib, Sulaymon o'lib, devlar mehnatdan qutulgan ekan. Hozirgi kunda bu iboraning ma'nosi qattiqqo'l kishi ketib, hamma istaganini qilishiga imkoniyat tug'ilishidir. Hamzaning „Boy ila xizmatchi“ asaridan olingan parchada bu ibora o'rinni qo'llangan. *Nega hammang ish qilmay, bekor o'tiribsanlar? Sulaymon o'lib, devlar qutulibdi-da!*

b) Qon-qarindoshlik leksemalari qo'llangan gender iboralar:

1. **Das kannst du deiner Großmutter erzählen** – (ich glaube dir nicht) – buni borib buvingga aytasan. Um acht Uhr hast du schon im Bett gelegen und geschlafen? Das kannst du deiner Großmutter erzählen [1, 277]. O'zbek tilida ham xuddi shu ibora ma'nosiga muqobil variant mavjud. Faqat bunda buvi leksemasi o'rniga **katta xola** leksemasi qo'llaniladi. Bu ertagingni borib katta xolangga aytasan.

2. **über den großen Onkel gehen** (mit einwärts gerichteten Füßen gehen) – ichkarga kirmoq

3. **der verlorene Sohn** (1. eine große Enttäuschung) – katta umidsizlik (2. j-d. von dem man lange keine Nachricht hatte, den man lange nicht gesehen hat) – dom daraksiz ketgan shaxs.

4. **Ist/war dein Vater Glaser?** (ugs. scherz. meinst du, du wärst durchsichtig?) – sen o'zingni oppoqman deb o'ylaysanmi?

5. **Das kann meine Tante auch** – (das ist ganz leicht, ist nicht die richtige Lösung der gestellten Aufgabe) – bu juda oson, bu berilgan vazifaning yechimi emas.

6. **Als der Großvater der Großmutter nahm** (in alter Zeit, als alles noch ganz anders war) – ancha vaqt oldin, hamma narsa butunlay boshqacha bo'lgan payt [1, 277].

7. **bei Mutter Grün schlafen** – (im Freien übernachten) ochiq havoda uxlamoq: im Freien übernachten: Als wir jung waren, haben wir oft bei Mutter Grün geschlafen [1, 279].

O'zbek tilida ham qarindoshlik darajasini bildiruvchi gender leksemalar qo'llanilgan ba'zi iboralar mavjud.

1. **Ona(si)**ni uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq – do'q qilishni, qo'rqitishni ifodalaydi [5, 26].

Qani kimga olma? Ha, birovga og'iz ocha ko'rmalaring. Komandir **onamni Uchqo'rg'ondan ko'rsatadi-ya!** [4, 11].

2. **Ammamning** buzog'i - lapashang, landavur [5, 26].

„Bektemirdan ko'nglim to'q - dedi Ali tajang, - kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho'tir u ham qo'rqoq, ham **ammamning buzog'i**“ [26].

3. **Ona** suti og'ziga keldi- haddan oshiq qiynalib ketdi [5, 192].

Yo'lga solguncha ona sutim og'zimga keldi. Bir yil sarson bo'ldim-a! [2].

4. **Ona** suti og'zidan ketmagan - hali yosh, tajribasiz [5, 193].

Mahmadona shumsan-da. Ona suting og'zingda-yu soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan [3, 304].

2. Tarkibida gender leksema qatnashgan va qatnashmagan gender turg'un birikmalar. Frazologizm tarkibida genderga oid so'zlar mavjud bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin, lekin ma'nosida genderlik xususiyati mavjud.

Tarkibida gender leksemasiz gender turg'un birikmalar.

Gender frazeologizmlar har ikkala jinsning tashqi ko'rinishiga qarab ham bir-biridan ajralib turadi. Bunda ibora qaysi jinsga tegishli ekanligini uning tarkibidagi so'zlarga qarab ajratishimiz mumkin. „*Schön*“ yoki „*bildhübsch*“ sifatlarini erkak kishining tashqi ko'rinishini tasvirlashda ishlatsak stilistik xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz, chunki bu iboralar faqat ayollarga nisbatan ishlatiladi. Eraklarning tashqi ko'rinishi ko'rkamligini tasvirlash uchun *wie ein Adonis aussieht* yoki *wie ein junger Gott ist* iboralar, ayollar tengsiz chiroylligi *wie angemalt aussehen* kabi iboralar yordamida ifodalanadi. *Lange Haare, kurzer Verstand*, (*sochi uzun aqli kalta*) iborasi hozirgi kunda sochi uzun erkaklar ham uchraydi, biroq shunga qaramasdan faqat ayollarga qo'llaniladi. *Marxum nomiga noloyiq gap-so'zlar o'rmalab qoldi. El olaog'iz bo'ldi. Ayrim odamlar "yuzboshining o'zi vasiyat qilgan ekan", desa, yana bir xili "Sochi uzun, aqli kalta qiz kopirning nayrangiga uchibdi-da", - deya afsus chekdi [7, 6].*

Yuqoridagi misollarda inson tashqi ko'rinishini ifodalash uchun qo'llanilgan leksemalarga qarab uning erkak yoki ayolni tasvirlayotganligini kuzatishimiz mumkin. Insonning fizik va psixik kuchini ifodalovchi bir qancha iboralar mavjud. Kuch haqida gap ketganda ayollarning kuchsiz ekanligi *das schwache oder das zarte Geschlecht (kuchsiz, nozik jins)* iborasi yordamida beriladi. Erkak kishining kuchi turli o'xshatishlar yordamida ifodalanadi. *Das starke Geschlecht* (kuchli jins) iborasidan tashqari *stark wie ein Bär; groß/stark/kräftig/...wie ein Baum, eine Bärennatur haben, Bärenkräfte haben, stark wie ein Löwe sein, Kräfte haben wie ein Löwe sein, ein Kraftprotz sein, ein Muskelprotz sein, einen Stiernacken haben, groß und breit – aus Muskelpaketen bestehen* kabi iboralar erkakni tasvirlashda qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi *og'ir oyog* iborasi tarkibida hech qanday gender leksema qo'llanmagan, lekin iboraning ma'nosi *homilador* degan ma'noni anglatadi va bu ibora faqatgina ayolga nisbatan qo'llanadi. *Oq saqol* iborasi tajribali kishi degan ma'noni anglatib, uning taribidagi *soqol* so'zi bu iboraning faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanishidagi motivdir. Lekin izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi *oq soqol* iborasi nafaqat erkakka, balki ayolga ham qo'llaniladi. Buni Abdulla Qahhorning „Xotinlar“ hikoyasidan olingan parchadagi misol yordamida ko'rishimiz mumkin.

Deraza yonida turgan kimdir:

— *Oqsoqol kelyapti, — dedi.*

„*Oqsoqol*“ deganda *Asqar otaning ko'z oldiga o'z tengquri biron mo'ysafid kelib, ancha yengil tortgan edi, eshikdan qirq yoshlardagi bir xotin kirdi. Hamma o'rnidan turdi. Asqar ota ham turmoqchi bo'lgan edi, oqsoqol yetib kelib yelkasidan bosdi.*

Warmduscher – iborasi orqali juratsiz, qo'rqqoq erkak tasvirlanadi.

Paul: Jetzt geh hin und sprich sie an!

Philipp: Ne, das mach in andermal.

Paul: Was bist du denn für ein Warmduscher!

Nemis tilidagi ein Mauerblümchen sein iborasi bilan xunuk, yolg'iz qolgan, turmushga chiqishi dargumon, erkaklar e'tiboridan qolgan ayol nazarda tutiladi. O'zbek tilida ham ushbu iboraning muqobili sifatida gender leksemali *qari qiz, o'tirib qolgan qiz* iboralarini misol sifatida keltirish mumkin. Faqat har ikki tildagi ushbu iboralarda qizning yoshida farq mavjud. *Nemis tilidagi ein Mauerblümchen sein* iborasida qizning yoshi ahamiyatsiz faqat uning tashqi ko'rinishiga qarab qo'llanuvchi iboradir, lekin o'zbek tilidagi *qari qiz, o'tirib qolgan qiz* kabi iboralarda yoshi o'tib qolgan, turmush qurish yoshidan o'tgan qizlar ya'ni 27-30 yoshdan oshgan qizlar nazarda tutiladi. O'zbek xalqida bu bilan bog'liq *“O'tirgan qiz o'rnini topar”* maqoli ham qo'llanadi. Keyingi yillarda xalq orasida ushbu maqolning o'zgargan versiyasi ham urfga kirgan: *“O'qigan qiz o'rnini topar”*.

Er kann sich hinter einem Schaufelstiel verstecken (Er ist sehr mager), (so'zma so'z tarjima: *U belkurakning orqasiga yashirinsa bo'ladi*) va *sie kann sich hinter einem Basenstiel sauberes Unterhemd anziehen (Sie ist sehr mager)*, (so'zma so'z tarjima: *U supurgi orqasida toza ichki kiyimlarini almashtirsa bo'ladi.*) Quydagi misolda ikkala jins o'rtasidagi farq yaqqol

ko'rinadi. Har ikkala misol ham shaxsning juda ozg'inligini ko'rsatyapti, ya'ni ish asbobi orqasidan ko'rinmasligiga ishora qilyapdi. Bunda belkurak erkaklarga xos, supurgi esa ayollarga xos ish quroli ekanligiga e'tibor qaratish kerak, demak, turg'un birikmalar ham ularga aloqador holda yaralishi kuzatildi.

Erkak va ayolni tasvirlashda zoonim tarkibi turg'un birikmalardan ham keng foydalaniladi. O'zbek tilida **xunojin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi** maqoli mavjud. Ushbu maqolda ko'chma ma'no ifodalangan bo'lib, uning tarkibida qo'llangan **xunojin** zooleksemasi aslida ayolni ko'rsatsa, **buqa** zooleksemasi erkakni ifodalaydi va ayol noz-ishvasi bilan erkakni o'z tuzog'iga ilintirganini bildiradi.

Nemis tilida hayvon komponentli gender iboralar talaygina. **Ein alter Hase sein-** tajribali kishi iborasi faqat erkaklarga nisbatan qo'llanadi. O'zbek tilida tulkidek ayyor iborasi ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanadi. Nemis tilida der Hahn – xo'roz komponentli iboralar erkaklarni tasvirlashda qo'llaniladi. **Der Hahn im Korb sein** iborasi **ko'pchilik ayollar orasidagi yagona erkak** degan ma'noni anglatadi. Tovuq zooleksemasi o'zbek tilida ham nemis tilida ham ahmoq odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Har ikkala tilda tovuq leksemali iboralar ayollar uchun qo'llanishi aniqlandi. **Ein blindes Huhn, ein dummes Huhn** – ahmoq xotin. O'zbek tilida **tovuq miya** iborasi ayollarga nisbatan qo'llanadigan vulgarizmdir. Ayol va erkakni tasvirlovchi iboralar orasida qo'y va qo'chqor komponentli iboralar ham mavjud. Ular ham ahmoqlikning ramzidir. **Der blöde Hammel – ahmoq erkak** va **dumm wie ein Schaf – ahmoq xotin** ma'nosini anglatadi. Nemis frazeologik birliklarida sudralib yuruvchilarning tasviri ko'p emas. Faqat ilon va timsoh komponentli iboralarni uchratish mumkin. Nemis tilida ham o'zbek tilida ham makkor shaxsni tavsiflashda ilon obraziga murojaat qilinadi. **Falsch wie ein Schlange** - ilondek ayyor. O'zbek tilida ilon obrazi orqali ayol tasvirlanadi.

Gender leksemali gender turg'un birikmalar.

Erkakni tasvirlovchi turg'un birikmalar: eine Frau zu angeln. Bu ibora faqat erkaklarga nisbatan qo'llaniladi. Nemis tilidan so'zma-so'z tarjimasi ayolni qarmoqqa ilintirmoq. O'zbek tilida bu iboraning **ayolni qarmoqqa ilintirmoq, to'rga ilintirmoq** kabi muqobil variantlari ham qo'llaniladi. Bu iboraning asl ma'nosi (versuchen mit einer Frau nah zu sein) - biror ayol bilan yaqin munosabat o'rnatishga harakat qilish. **Mutter ohne Burst** (ko'kraksiz ona) - bu ibora faqat erkaklarga ishlatiladi. Bu ibora orqali erkakning farzandga qanchalik mehribonligi tasvirlanadi. **Muttersöhnchen** – iborasi balog'atga yetgan bo'lishiga qaramasdan mustaqil ish qila olmaydigan, qaram erkakka nisbatan qo'llaniladi. Bu guruhga kiruvchi nemis tilidagi turg'un birikmalar orasida **Mann** va **Vater** gender leksemali maqol va iboralar salmoqli o'ringa ega. **Ein Mann muss immer mehr wollen, als er leisten kann** - *Erkak kishi o'z imkoniyatlaridan ortig'ini xohlaydi*, **Geld macht den Mann** - *Pul erkakni erkak qiladi*, **Männer, die viel lieben, werden viel arbeiten** - *Ko'p sevadigan erkaklar ko'p ishlaydi*, **Männer lieben mit Augen** – *erkaklar ko'zi bilan sevadi*. O'zbek tilida bu guruhga kiruvchi – *Yigit kishiga qirq hunar oz*, *Erkakdan ish arimas, tog'dan bulut*, *Er bermoq-jon bermoq*, *Arslon izidan qaytmaydi*, *yigit - so'zidan*, *Yomon o'g'il molga o'rtoq*, *Yaxshi o'g'il – jonga*.

Ayolni tasvirlovchi turg'un birikmalar: grüne Witwe – uyida ko'pincha yolg'iz o'tiradigan ayol, xuddi bevadek yashash. Ayolning juda go'zalligi **ein Bild von einem Mädchen/einer Frau** kabi iboralar bilan tasvirlanadi. **Eine Zunge reicht für zwei Frauen** - Ikki ayolga bitta til kifoya qiladi, **Frauen und Geld regieren die Welt** - Ayollar va pul dunyoni boshqaradi, **Jede Frau liebt die Frau im Spiegel** - Hamma ayol, ko'zgdagi ayolni yaxshi ko'radi ya'ni har bir ayol o'zini sevadi. Yuqoridagi maqollarda nemis xalqining ayol obraziga bergan gender stereotiplari ifodalangan. O'zbek xalqida ham ayol haqidagi ko'plab maqollar mavjud. *Ayol tilini ayol bilar*, *Bahorgi jo'jani kuzda sana*, *kelinni kelar yili sina*, *Yomg'irda ot tanlama*, *Hayitda – qiz*, *Qizlar gulni der*, *Boy- pulni*, *Qizlar qizilga uchar*, *Savdogar – pulga*, *Kelin – yomon*, *nevara – shirin*, *Onali kelin – qarqara*, *Onasiz kelin – tasqara*, *Qiz meniki – baxti o'zganiki*, *Qizim-qizim qiz kishi*, *qizimga kelar yuz kishi*, *Yaxshi xotin – uy bo'stoni*, *Yomon xotin – zimistoni* kabi maqollarda **qiz**, **xotin**, **ayol**, **kelin** kabi gender leksemalar qo'llangan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkin, turg'un birikmalar til imkoniyatlari qanchalik kengligini ko'rsatuvchi muhim vositalardan biridir. Nemis va o'zbek tillaridagi gender leksemali turg'un birikmalar tahlil qilindi va har ikki tilda ham jinsni aniq ifodalovchi frazeologik birliklar soni ko'p

ADABIYOTSHUNOSLIK

emasligi aniqlandi. Ko'plab frazeologik birliklarda shaxs umumlashgan holda ko'rsatiladi, bunda uning jinsi, ayol yoki erkakligi aniq ko'rsatilmaydi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, atoqli otlar qatnashgan gender iboralar o'zbek tiliga qaraganda nemis tilida ko'proq qo'llanishi aniqlandi. Har ikki tilda ham zooleksemalar ibora tarkibida kelishi holatlari kuzatildi, bunda ayrim iboralar jinslarni ifodalashda qo'llanilishi aniqlandi. Nemis tilida ham o'zbek tilida ham maqollar o'zida gender xususiyatlarni eng ko'p aks ettiruvchi turg'un birikmadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Günther D, Werner S. Duden, Band 11: Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten, Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich: Dudenverlag, 1992. — 864 S. (Gunther D, Werner S. Duden, Part 11: Idioms and proverbial sayings, Manheim, Leipzig, Vienna, Zurich: Duden publisher, 1992. — 864 p).
2. Ismoiliy M. Farg'onada tong otguncha. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 496 b. (Ismailiy M. Until dawn in Ferghana. Tashkent: generation of the new age, 2019. — 496 p).
3. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. — Toshkent: O'zSSR Fan akademiyasi, 1976. — 543 b. (Oybek. Breezes from the golden valley. Tashkent: O'zSSR Fan akademiyasi, 1976. — 543 p).
4. Oybek. Quyosh qoraymas. — Toshkent: O'zSSR Fan akademiyasi, 1977. — 376 b. (Oybek. The Sun does not darken. — Tashkent: O'zSSR Fan akademiyasi, 1977. — 376 p).
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1978. — 407 b. (Rahmatullayev Sh. An explanatory dictionary of the Uzbek language. Tashkent: Teacher, 1978. — 407 p).
6. Sternkopf J. Gibt es geschlechtsspezifische Phraseologismen in der deutschen Sprache der Gegenwart? // Chronologische, areale und situative Varietäten. 1995. — 417 S. (Sternkopf J. There are gender-specific phraseologisms in contemporary German? // chronological, areal and situational varieties. 1995. — 417 p).
7. Toshboev O. Ultontoz. — Toshkent: G'ofur G'ulom, 2019. — 368 b. (Toshboev O. Ultontoz. — Tashkent: G'ofur G'ulom, 2019. — 368 p).
8. <https://www.redensarten-index.de/suche.php>